ISSN 2181-371X
SJIF: 5.305 VOLUME 4 ISSUE 34
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION

SARAXBORI SEGOHDA USUL, LAD, OHANG MASALASI

Haydarova Nodira
Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
“O‘zbek maqomi tarixi va nazariaysi” kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil tadqiqotchi (PhD)
Ilmiy raxbar: ***S.M. Begmatov***

Annotatsiya*: Maqolada Saraxbori Segohning usul, lad, ohang, shakli va ahamiyati tahlil qilingan. Saraxbori Segoh talili ijro namunasi, asarning ohang timsoli aiqlangan va tavsifi berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Saraxbor, Segoh, turkum, makom, ritm (usul), lad, tarona, Nasr, sho‘ba.*

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev “Milliy maqom san’atini rivojlantirish va yoshlarni yuksak insoniy tuyg‘ular ruhida tarbiyalash, ularning estetik didi va tafakkurini shakllantirishda maqom san’atining keng imkoniyatlaridan foydalanish to‘g‘risida”[10] gi qarori e’lon qilingandan keyin respublikamizda milliy va mumtoz musiqa san’atining, milliy musiqiy ta’limning yanada rivojlanishini ta’minlanishiga ulkan imkoniyatlar paydo bo‘ldi. “Maqom” san’atiga yuqori darajadagi alohida e’tibor, bunday munosabat natijasi o‘laroq, milliy mumtoz ijrochilik san’ati sohiblari, ustoz san’atkorlar, hofizlaru-sozandalar, bastakoru navozandalarning ham mamnuniyati ortdi. Ushbu qarorlar mazmun mohiyatini anglagan alalxusus bu soha vakillarining ma’suliyati ortdi.

Maqom san’atining tarixiy bosqichlari, ilmiy-nazariy negizlari chuqur o‘ragnilishini davlat rahbari qarorlarida bong urgan bugungi kunda, bo‘lajak mutaxassislar uchun ham mavjud kamchiliklarni bartaraf etish dolzarb masaladir. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, maqomlarimizni o‘rganish, o‘zlashtirish, zamonaviy ijrosini notaga olish, targ‘ib qilish, yoshlar ongiga singdirishda maqomlarimizning yuqori MAQOMini asrash, ehtirotkorlik bilan murojaat qilish, kelajak avlodga mukammal namunalarni yetkazish ham dolzarb masalalardan biridir. Zero, bir qator yetuk xonanda, sozanda amaliyotchilarimiz ham maqomlarimizning o‘ta zamonaviylashishi, shakl shamoyili buzilishiga qarshiliklarini ochiq muloqot ko‘rsatuvlarida namoyon etishgani hech kimga sir emas.

Har bir mohir an’anaviy xonanda va ijrochi Saraxborlarni alohida va turkum sifatida o‘rganishi, ijro etishi tabiiy. Bunday mukammal tuzilishdagi murakkab asarlar nazariy va amaliy bilimlarga asoslanib ijro etilsa, yanada maqsadga muvofiqdir.

Amaliyot va nazariyani uyg‘unlashtirgan mutaxassis musiqachilar sohada sanoqli. Bu o‘rinda kelajak avlod musiqashunoslari bugungi ta’limda cholg‘u ijrochiligini ham o‘rganayotganlarini alohida e’tirof etish lozim.

Saraxbori Segoh Buxoro Shashmaqomi 5-maqomi Nasr bo‘limi birinchi guruh sho‘basini boshlab beradi.

1-tasvirli jadval.



Saraxbor − (darak beruvchi) ashula bo‘limining yetakchi, boshlang‘ich qismi bo‘libgina qolmay, balki butun maqom turkumining dastlabki hisob nuqtasidir. Shashmaqomning cholg‘u bo‘limida boshlang‘ich, yetakchi qism vazifasini “Tasnif” bajaradi. Shashmaqom kontekstida (kontekst − matnning to‘la ma’nosini anglatuvchi bir butun qismi) “Saraxbor” atamasi ustozlar tomonidan bir − biriga bog‘liq bo‘lgan quyidagi uch ma’nolarda ishlatiladi:

1) Ashula bo‘limi boshlang‘ich qismining nomi. Saraxbor maqom turkumining mazmun va mantiqiy o‘zagini anglatadi.

2) Saraxbor o‘ziga ergashgan taronalar bilan birlashgan sho‘ba.

3) Keng ma’noda Saraxbor deganda Talqin, Nasr, Tarona va Ufarlar ko‘lamidagi ashula yo‘lining asosiy o‘zagi tushuniladi [6. 88 b.].

Musiqa ilmida ”usul”, ya’ni iqo’ masalasi o‘tmishdan doimo musiqashunos olimlarning diqqat markazida va tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelgan. Saifuiddin Urmaviy (XIII) ijodidan boshlab, musiqa nazariyasi − asosiy ikki bosh mezon o‘rganilishiga qaratilgan. Bular: parda va vazn jihatlaridir. Bundan ilgari ham IX − XII asrlarda xususan, Farobiy ijodida musiqa nazariyasi o‘z navbatida besh bo‘limga ajratilgan va to‘rtinchi bo‘limida ritm, ya’ni, nag‘malarning vazni haqida gapiriladi. Shu o‘rinda Ibn Sino o‘zining “Javomi ilmi musiqa” (1956-yil) risolasida − “Musiqa− matematika ismi bo‘lib, unda kuy yaratilishini bilish maqsadida nag‘malarning o‘zaro moslashishi va moslanmasligi jihatidan hamda ana shu nag‘malar orasida o‘tadigan vaqt o‘rganiladi” [3. 8 b.] − deb yozadi.





Sayfiuddin Urmaviy bosh mezon deb aytib o‘tgan ilmu iqo’ − musiqa vazning eng kichik birligi ***naqr*** (chertish) va ulardan hosil bo‘ladigan iqo’ (ritm), davr (ritmik

tuzilma), usul (ritmik davrning muayyan turi) kabi tushunchalarni o‘rganishga qaratilgan. Demak, ikki naqrning munosabati iqo’ bo‘ladi.


Maqomlarda usullarining ahamiyati nixoyatda katta. Chunki, ritm kuy xarakterini belgilovchi muhim vosita sifatida keladi. I. Rajabov − “kuyga jo‘r bo‘ladigan doira usuli dastlab kuy yo‘lining xarakteriga, uning xarakat doirasiga, ritmik va ohang xususiyatlariga bog‘liq holda yuzaga kelgan bo‘lsada, keyinchalik usullar kuyning holatiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi” [4. 169 b.] − deb yozadi. Maqomlarda har bir qismni belgilovchi eng muhim omil uning metroritmik asosi va birinchi navbatda doira usuli hisoblanadi. Shuning uchun ko‘proq maqom qismlarining nomlari doira usuli nomi bilan aytiladi.



Arab tilida “usul” (“asl”) asos, poydevor kabi ma’nolarda keladi. Usul nafaqat parda balki kuy, musiqaning asosiy poydevori, maqom tafakkurining boshlang‘ich nuqtalaridan biridir. Usul ohangni har kuyga solinishida asos bo‘lishi mumkin. Jumladan, bir kuy Saraxbor usulida og‘ir, vazmin tus olsa, Soqiynoma, Ufar usullarida esa, ko‘tarinkilikni ifodalaydi.


Saraxbor usuli mavjud barcha usullarining onasi, asli sifatida ham e’tirof etiladi. Ibtidoiy namunasi “zarbul - qadim” dir. Saraxbor usulini − usullarning poydevori desak maqsadga muvofiqdir. Usuldagi “bum-bak” sog‘lom kishining yurak urishidan, xarakatidan olingan. Bu kabi fikrlar A.Fitratning “O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi”, “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolalarida keltirilgan. Amaliyotda Saraxbor usuli bir nechta variantlarda − ko‘rinishlarda uchraydi. Jumladan [7. XXVII b.]:

NASR (ashula qismi)				
Saraxbor	Buxoro varianti	Tojikcha variant	Xorazm varianti	Y. Rajabiy yozib olgan variant
				


Y.Rajabiy “Musiqa merosimizga bir nazar” nomli izoh va tuzatishlar kitobida: Shashmaqom borasida olib borilgan ish jarayonida doira usullariga katta ahamiyat berilib o‘rganganligi va o‘z navbatida ashulani to‘g‘ri yo‘lga tushirishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishini ta’kidlab o‘tadi.

Saraxbor usullari amaliyotda turli ko‘rinishlarda qo‘llanilganligi xususida ham fikrlar mavjud. Jumladan: 

yoki 
Bu usullarning quyidagicha bo‘lishini munosib deb bilamiz:


Har bir maqom Saraxborlari 2/4 takt o‘lchovidagi doira usuli  yoki  jo‘rligida ijro etilishi shart. Y. Rajabiy nashr ettirgan Shashmaqomning VI jildlik variantida Saraxborning takt o‘lchovlari turlicha yozilib qolgan. Masalan, “Saraxbori Navo”-2/2, “Saraxbori Segoh”- 4/4, “Saraxbori Iroq”-2/2 takt o‘lchovida; qolganlari 2/4 o‘lchovida yozilgan. Yuqorida sanab o‘tilganlari ham 2/4 o‘lchovida yozilib o‘qilsa, ashula aytilishi ravonlashib, jozibaliroq yangraydi [5. 87 b.].

Saraxborlarning usullaridan nafaqat Shashmaqom turkumi xonanda va sozandalar kuylaganda balki, nazariy va amaliy darslarni olib borish jarayonlarida ham keng foydalaniladi. Misol uchun Solfedjio darslarida maqom usullari, usulini chertib kuy harakati va ritmini ifodalab berish mashqlari bajariladi. Ilk bor maqom ritmlarini solfedjio darslarda qo‘llashni san’atshunoslik fanlari nomzodi professor Matyakubova S. amaliyotda 2007-2008 o‘quv yillarida Sharq fakulteti xonanda va sozanda talabalar uchun sinovda qo‘llay boshlagan. Keyinchalik barcha yo‘nalishlarda joriy etilgan. Maqom parchalari asosida ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanmani bosqichma - bosqich o‘zlashtirish natijasida talabalar: ongi va savodi oshadi, usul mohiyatini tushunib ijro etadi, maqom tarkibidagi turli janrlarning usul- ritm poydevorini aniq tasavvur etadi, maqom yo‘llarini hirgoya qilishda qo‘l bilan usulda jo‘r bo‘la oladi. Muallif Matyakubova S.ning nazariy qoidalari ikki tilda shakllantirilgan “Maqom ritmlari solfedjio darslarida” o‘quv qo‘llanmasida maqom asosidagi ritmik mashqlarni kuzatish mumkin. Ushbu qo‘llanma bugun kunda amaliyotda qo‘llanadi. Bu haqida so‘z yuritilishining sababi Yunus Rajabiy “O‘zbek xalq muzikasi” V jild nota to‘plamida berilgan usullar jadvali nusxasini kiritgan. Amaliyot jarayonida xonanda va sozandalarda ushbu mashqlar ijrosi talab qilingan amaliy jarayondagi usullar bilan tafovutlar borligi kuzatiladi. Shashmaqomdagi barcha usullarni amaliyot jarayoni bilan bevosita bog‘liq o‘rganib, hissalardagi almashinishlarga, o‘zgargan usullarga tuzatishlar kiritish va zamon talabidagi maqom usullar to‘plamini amaliyotga tadbiq etish lozim.

Saraxbor		Segoh, Iroq Buzruk, Rost, Navo Navo Dugoh

[2.]

Saraxbori Buzruk Shashmaqom Nasr bo‘limini boshlab beruvchi asosiy sho‘ba hisoblanadi va o‘zidan keyin taronalari ijro etiladi.

So‘ngi davrlarda masiqachilar bu usul qismlarini boshqaa so‘zlar (Buxoroda “bum-bak”, Xorazmda “gub-taq”) bilan ham ifodalab kelganlar.

“Doira usullari maqom, kuy va ashula yo‘llarini xarakterli tomonlarini ochib berishda hal qiluvchi omillaldan hisoblanadi. Maqomlarning tarkibida bo‘lgan anchagina kuy va ashulalar variatsiya yo‘li bilan ishlangan. Bunda esa doyra usuli muhim rol o‘ynaydi” [4. 168 b.]. Ya’ni, usullar kuy va ashulalarning xarakteriga ta’sir eto olgan. Kuylar va ashulalar usul o‘zgarishi bilan ma’lum darajada tuslangan.

Musiqa tizimidagi barcha tovushlarning tartiblashgan majmuasi – tovushqator, lad deyiladi. Turli musiqa uslublarida Tovushqator ahamiyati har xil bo‘ladi. Og‘zaki an’anadagi musiqa, jumladan, o‘zbek xalq va mumtoz musiqa ijodida tovushqatorlarning bir nechta tarixiy - uslubiy ko‘rinishlari mavjud. Mavsum marosim qo‘shiqlarida xos tor (kvarta kvinta) hajmdagi tovushqatorlar bo‘lsa, xalq lirik musiqasi, raqs, qo‘shiq va kuylarida oktava diapazonidagi tovushqatorlar asosiy o‘rin egallaydi. Maqom tovushqatorlari va boshqa ba’zi (yig‘i, alla, qissaxonlik kabi, kompozitorlik ijodida esa - sonoristika, elektron musiqa va b. yo‘nalishlarda) musiqa shakllarida muayyan tovushqator tizimi o‘rniga tovushlarning erkin munosabatlari asosiy o‘rin tutadi.

Nota to‘plamlarda Shashmaqom yozuvining “maqom” tushunchasi va uning lad tuzilmasi nuqtai nazardan qaraganda juziy anglashilmovchiliklar mavjudligi kuzatiladi. Bunday chalkashliklarni har bir sozanda ijro etgan paytida sezadi. Maqomlar va ularning sho‘balarida ko‘p uchraydi. Shashmaqom yuzaga kelish jarayonida ayrim maqom yo‘llarida o‘zga lad asosidagi maqom va sho‘balar kiritilganligi uchun Shashmaqom tarkibida ham o‘zining lad asosini saqlab qolgan va Shashmaqomning lad qiyofasini aniqlashda chalkashliklarga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham O‘n ikki maqom va Shashmaqom lad tuzilishini taqqoslab ko‘rishda ayrim murakkabotlar borligi tabiiy. Chunki hozirgi zamon nota tizimida maqom kuylari yozib olinganida, mos keladigan sof lad va tonallik tizimida keltiriladi va bu tizimda kuylardagi boshqa nimpardalarni yozib olish imkoniyati yo‘q.

Shashmaqom lad asosi haqida fikr yuritganda, uning tarkibidagi kuy va ashulalar yana boshqa bir qonuniyatga asoslanganligini aniqlash mumkin. Har bir maqomni tashkil etgan tovushqatorlar tayanch tovush (parda)lari mavjud. Kuy yuqoriga tomon harakat qilib borganida tayanch tovushlar alohida sezilib turadi. Albatta bu yerda namudlardagi tonallikning o‘zgarishi ham inobatga olinadi.

“Bu tayanch pog‘onalar hamma maqomlarda kuyning ayrim jumlalari harakati jarayonidagina emas, balki kuy yoki ashulani tashkil etgan qismlarning biridan ikkinchisiga o‘tishda ham kuchli iz qoldirgan.” [4. 154 b]

Ma’lumki, Shashmaqom tarkibiga kirgan maqom yo‘llari, tanbur cholg‘usining parda tuzilishiga moslashtirilgan. Undagi hosil qilinadigan tovush va intervallar tarkibida O‘n ikki maqomda uchraydigan ba’zi holatlar saqlanib qolgan. Shu sababli ayniqsa, Navo va Segoh maqomlarining ayrim sho‘balarini fortepianoda yoki asl holida tanbur va hofizlar ijrosida tinglab ko‘rilsa, ba’zi pog‘onalar orasida kichik tafovut borligi seziladi.

Ayrim musiqa olimlari maqomlarning lad-tovushqatori ma’lum bo‘lgani uchun boshlanadigan pardasi (tonikasi) ahamiyatsiz deya fikrlar bergan. Lekin asosiy yoki tayanch tovush ya’ni boshlanadigan va yakunida qaytib keladigan tovush maqomlarda ahamiyatini yo‘qotmaydi. Maqomlar va ularning sho‘balari asl pardasi, balandligi notayozuvlarda berilganidek. Xonanda va sozandalarning ijro imkoniyatlaridan kelib chiqib transpozitsiya qilgan pardalari maqomlarning tuzilish qonuniyatlariga zid emas va shu bilan birga maqomot tizimining yaxlit tuzilishi aslicha saqlanishi lozim. O‘rta asr Sharq olimlarining musiqa risolalaridagi O‘n ikki maqom lad tovushqatorlari, kuy va ashula yo‘llari hosil qilinadigan ud torlaridagi pardalari maxsus ko‘rsatib o‘tilgan va maqom yo‘llari boshlanadigan parda (tonika)ga alohida ahamiyat berilgan. Tabiiyki, qadimda ham ashulachi maqom yo‘llarini ovoz imkoniyatlariga qarab transpozitsiya qilib ijro etgan. Lekin musiqa nazariyasida ularning asl pardalari berilgan. Maqom ma’lum ladga mos keladigan kuy va ashulalar yig‘indisi va shu bilan birga ular boshlanadigan pardalarni ham ifodalaydi. Shu ikki jihat maqomlar tizimini tushuntirishda hisobga olinishi lozim.

Shashmaqom butun holda katta hajmdagi turkumli asar. Biz uchun har bir maqomning va sho‘balarning boshlanish pardasi yoki lad tovushqatori masalasi tarixiy va amaliy ahamiyatga ega. Shu bilan birga, maqomlar tizimini notaga olib nashr etishda ularning tom ma’nosi bilan yaxlit holda saqlanishiga alohida ahamiyat berilishi lozim.


Shu o‘rinda Saraxborlarning kuy, ohang timsoli (ohang mag‘zi), lad masalasiga ham to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqdir. Maqomlarga uyg‘ungik baxsh etuvchi, pardalar tizimi asosida qismi sanalmish Saraxborlarni tahlil qilishga, negizini yoritib berishga imkon beradi.

Har bir maqom aslida bir dunyo. Unda o‘zining falsafasi, mazmun − mohiyati, ruhiyati mujassam bo‘lib, ohanglar tizimida ifodasini topgan. Har bir maqom o‘ziga xos jozibador ohanglarni o‘zida jamlagan. Kuy, ohang − inson ruhiga ilohiy kayfiyat ifodasi[1]. Bir musiqiy asarning g‘oyasi, dastlab hayolda paydo bo‘ladi va ijro tufayli sadolanish orqali jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi. Ohang sadosining umri juda qisqa − paydo bo‘lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g‘oyib bo‘ladi.

[1] Матёқубов О. Мақомот. Т.: Мусиқа, 2004.

Lekin, sadolangan ta’sirli tovush, ohang eshituvchini e’tiborini o‘ziga jalb etib oladi, eshituvchida zavq uyg‘otadi va shu lazzatli holatga qaytadan intilishga da’vat etadi. Abdurahmon Jomiy o‘zining “Risolai musiqiy” sida (N.Shodmon tarjimasi. T., 1988) bu jozibani quyidagicha ifodalagan: “Nag‘malar ta’lifotini boshqa hech bir ta’lifotda uchramaydigan shunday xususiyat borki, ular bir − biriga muvofiq (muloyim yoki ohangdosh) bo‘lganda ruhga tez yetib borib, huzur baxsh etish bilan uni butunlay chulg‘a, o‘ziga rom etadi. Lekin ruh undan huzur ola boshlaganda u yo‘qlik pardasiga o‘ranib, g‘oyib bo‘ladi. Uning yo‘qolishi umidsizlik hosil qilsa, yana umidsizlik kayfiyati tamom to‘lmasdan turib, keyingi paydo bo‘lgan nag‘ma avvalgi huzurning qaytib kelishini ta’minlaydi...”[2]. Kuyning dastlabki ohangi qabul qilinsa, insonga yetarlicha o‘z ta’sirini o‘tkazsa, undagi zavq lazzatini davom ettrish ishtiyoqi uyg‘onadi. Bunday ruhiy holatda ijrosi va tinglovchi qalblari bog‘lanib, ular kuydan birdek ozuqa ol boshlaydilar. Bu ishtiyoq tobora rivojlanib, ohanglar birlashib, kuy jumlalariga, jumlalar esa o‘z navbvtida yanada yirikroq birikmalarga aylanib boradi. Shunday tarzda birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo‘ladi. Ularning birlashuvidan yirik asarlar yuzaga keladi. Musiqa - parda va usullarning muvofiqlashgan tizimi, kuy - bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma’no. “Maqom”larning benazir shajarasida ham shunday tarzda shakillangan bo‘lib, undagi har bir kuy negizida shunday chuqur ma’nolar yotadiki, xalq xotirasi ularni mumtoz asarlar sifatida saqlab kelmoqda. Ana shu ma’no uzi bir kichik ko‘rinishda ifodalangan ohang, asarning ohang mag‘zi hisoblanadi, ijrochi esa ohang mag‘zidan zavqlanib mahlum shakldagi asarni ijro etadi. Maqomlarda ohang mag‘zi (timsol)[3]– ayrim pardalar hisoblanadi.

1- nota misol




QR kod Saraxbori Segoh

Saraxbori Segoh (V 664-671 - betlar) 1954 - yildan A.Navoiy she’ri bilan maqomdon ustoz Borux Zikriyevdan yozib olingan. O‘tmishdagi maqom ijrochiligi an’analariga ko‘ra, xonandalar tomonidan ko‘pincha doira jo‘rligida ijro etish odat tusiga kiradi. Sozandalar esa tanburda ijro etganlar va Ota Jalol Nosirov ham Buxoro maqom maktabida xonandalarni shunday tarbiyalab kelganlar. Segoh maqomini kuy yo‘lini sodda, nola va qochirimlarsiz Borux Zikriyev kuylagan. She’rni

[2] Матёқубов О. Мақомот. Т.: Мусиқа, 2004.– Б.14.
[3] Мақомларни моҳир ижрочиси билимдон Ўзбекистон халқ хофизи Маҳмуджон Тожибоев сухбатидан: “ядро”, “Оҳанг мағзи” тушунчаларини “тимсол” деб таъриф берган. 2010 й. 10- апрель.


ohangga silliq tushira olmagani uchun bu asarni notaga olish jarayonida ayrim kamchiliklar sodir bo‘lgan. O‘lchovi ham 2/4 o‘lchovda yozilgan. “1962-1963 yillarda maqomchilar ansambliga ushbu ashula o‘rgatilgan paytda ilgari yo‘l qo‘yilgan xatolar yaqqol ko‘ringan. Shu sababga ko‘ra kuy yo‘liga ancha o‘zgarishlar kiritildi hamda shu tuzatilgan nusxa bir qator taniqli ijrochilar tomonidan ijro etildi. O‘rganishda ashulaning ana shu variantidan foydalanishni tavsiya etamiz.[4]” (Shashmaqom V jild, 26-31 betlar).

2- nota misol



1. Yunus Rajabiy to‘plab, notalashtirgan olti jildlik Shashmaqom (Toshkent, 1966-1975) kitobida berilgan namuna;

Segoh uch o‘rin, joydan ya’ni uch pardadan hosil qilib olinadigan tovushqatordir. Saraxbori Segoh maqomining ohang mag‘zi ana shu uch pardada joylashgan. Ashulaning daromad qismidayoq Segohni aks ettiruvchi timsol (yadro) namoyon bo‘lgan: (*do→re→mi*) pardalari. (V-jild “O‘zbek xalq musiqasi”da *re→mi→fa*).



[4] Ражабий Ю. Ммусиқа меросимизга бир назар. Т.: Ғофур Ғулом, 1978. с 104-105

2. O‘zbekiston Radiosi huzuridagi Yunus Rajabiy rahbarligida 1959-yilda tashkil etilgan maqom ansambli tomonidan ijro etilgan va gramplastinkalarga yozilgan audioyozuv. https://youtu.be/NkSvboV8JRQ



Ushbu QR kodda aynan shu ansambl ijrosidagi Saraxborlar berilgan.

Ota Jalol Nosirov va Ota G‘iyos Abdug‘aniyevlar ijrosidan Viktor Uspenskiy yozib olgan to‘plamda Saraxborlarning taronalari son va shakl jihatidan farq qiladi. Saraxbori Buzrukda 5 ta tarona, Saraxbori Rost 4 ta, Saraxbori Navo 3 ta, Saraxbori Dugoh eng ko‘p 8 ta taronadan iborat, Sarxbori Segoh 7 ta, Saraxbori Iroqda 6 ta tarona notaga olingan. “Ular ba’zan o‘zidan oldin keladigan taronadagi mavzuning variatsiyasi bo‘lib keladi. Ba’zida bunday kuylarni yaratishda boshqa maqom sho‘balarining taronalaridan ham foydalaniladi. Lekin taronalar o‘zlari mansub bo‘lgan maqom yoki sho‘balarning ruhini, kuy qiyofasini aks ettirishi va o‘sha maqom yo‘llariga har tomonlama mos kelishi lozim” [4. 222-223 b].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rajabov I. Maqom asoslari. Ikkinchi nashr. Yangi asr avlodi., Toshkent, 2019.
2. Matyakubova S.K. Maqom ritmlari solfedjio darslarida. O‘quv uslubiy qo‘llanma.
3. Матёқубов О. Оғзаки анъанадаги профессионал музика асосларига кириш. Т.: Укитувчи,1983.– Б.8.
4. Ражабов И. Мақомлар. SAN’AT. Т., 2006.
5. Ражабий Ю. Музика меросимизга бир назар. Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Т.: 1978. – 87 b
6. Тўраев Ф.Ж. Мақом асослари маърузалар матни. Бухоро,2005. 88 с.
7. Узбек халқ мусиқаси V том. Т.: Ўзбекистон ССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1959.– Б.XXVII
8. Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Т.: Фан, 1993.
9. Қосимов Р. Мақомот-халқ эҳтиёжи.// “Шашмақом сабоқлари” мақола ва маърузалар тўплами. Т., 2005. 96
10. https://lex.uz/docs/-3581613
11. https://youtu.be/NkSvboV8JRQ